



## TURISTIK KORIDORLAR VA ULARNING XALQARO TURIZMNI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNINI

*G.f.n. Tashtayeva Saida Kakharovna*  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada turistik koridorlarning mazmun-mohiyati, turizm sanoatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Bu boradagi ilmiy qarashlar tahlil qilingan, turistik koridor tushunchasiga aniqlik kiritilgan. Geografik qamroviga ko'ra turlarga ajratilgan va ular asoslab berilgan. Muammolar jahon tajribalari o'rganilgan, ularni tashkil etishning zarurati va ahamiyati batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** turistik koridor, mintaqa, ekokoridor, madaniy meros, turizm sanoati, Markaziy Osiyo, turistik samaradorlik, mintaqa.

## ТУРИСТСКИЕ КОРИДОРЫ И ИХ МЕСТО В РАЗВИТИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА

*К.г.н. Таштаева Саида Кахаровна*  
Ташкентский государственный университет востоковедения

**Аннотация.** В статье раскрыта сущность туристских коридоров и их значение в развитии туристической индустрии. Проанализированы научные взгляды по данной тематике и уточнено понятие туристского коридора. По географическому охвату выделены виды коридоров и обоснованы. Изучен мировой опыт, подчеркивается необходимость и значение их организации.

**Ключевые слова:** туристический коридор, регион, экоккоридор, культурное наследие, туристическая индустрия, Центральная Азия, эффективность туризма, регион.

## TOURIST CORRIDORS AND THEIR PLACE IN THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM

*Tashtaeva Saida Kakharovna*  
Tashkent State University of Oriental Studies

**Abstract.** The article reveals the nature of tourist corridors and their importance in the development of the tourism industry. Some scientific views are accurately analyzed and the concept of a tourist corridor is clarified in this study paper. The types of tourist corridors have been identified and justified by their geographic coverage. There has been studied different world experiences and the need and importance of their organization is structurally emphasized.

**Key words:** tourist corridor, region, eco-corridor, cultural heritage, tourism industry, Central Asia, tourism efficiency, region.

### **Kirish.**

XX asr o'rtalaridan boshlab turizm bozori ijobiy o'sish tendensiyalarini namoyon qilib kelmoqda. 2019 yilda turistlar soni maksimal darajaga yetib, bir yilda sayohat qiluvchilar miqdori 1,5 mlrd. kishini tashkil etdi. Shuningdek, jahon turizm bozori rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi turistik destinatsiyalarning paydo bo'lishi bilan qamrovi tobora kengayib bormoqda. Globallashuv jarayonining rivojlanishi dunyo davlatlarini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalarda bo'lgani kabi turizm sohasida ham o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishini taqozo qilmoqda. Turizm sanoatida turistik resurslardan samarali foydalanish maqsadida uni oqilona loyihalashtirish va tashkil etishning turli shakllari yuzaga kelmoqda.

Turistik markazlarni bog'lash, sayohat "samaradorligi" ni oshirish, turistlarga qulaylik yaratish, sayohatchilar transchegaraviy hududlarda vaqtini behuda sarflamasligi maqsadida davlatlar tomonidan turistik koridorlar tashkil etilmoqda va o'z o'rnida bu borada yaxshi natijalarga ham erishilmoqda. Turkiyada Istanbul-Antaliya koridori, AQShda G'arb-Sharq, Fransiya, Ispaniya, Xitoy, Hindiston kabi ko'plab mamlakatlarda bu borada turli tajribalar kuzatilmoqda.

Jumladan, yurtimizda ham 2022 yilda "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zR Prezidenti qarori qabul qilingan bo'lib, uning amaliy isboti sifatida Qirg'izistondan boshlanib, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon orqali Turkiyada tugaydigan turistik koridorni shakllantirish va rivojlantirish loyihasini ko'rsatishimiz mumkin (Qaror, 2022).

Turistik koridorlar xalqaro, shuningdek milliy miqyosda ham tashkil etilishi mumkin. Xususan, O'zbekistonda 2019 yilda "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonida Andijon viloyatining Xonobod shahridan Surxondaryo viloyatining Termiz shahriga bog'langan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq shahrigacha "O'zbekiston turizm magistrali" turizm transport koridorini tashkil etish to'g'risida vazifalar belgilab qo'yilgan (Farmon, 2019) 2022 yilda "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorida "O'zbekiston turizm magistrali" turizm transport koridori bo'ylab avtomagistral yo'llari va yo'l bo'yidagi infratuzilma holatini o'rganish bo'yicha ishchi guruhi takliflariga muvofiq, belgilangan tartibda Turizm transport koridori bo'ylab yer uchastkalarini realizatsiya qilish va avtomagistral yo'llari bo'ylab zamonaviy standartlarga javob beradigan "karvonsaroy" larni tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berildi (Qaror, 2022).

Ushbu belgilangan vazifalarni amalga oshirish turistik koridorlarga oid ilmiy tadqiqotlarni, bu boradagi jahon tajribalarini o'rganishni taqozo qiladi va mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

### Adabiyotlar sharhi.

Turistik koridorlarni ilmiy o'rganish so'nggi yillardagina ommalashgan masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. "Koridor" so'zi fransuzcha bo'lib, "uzun yo'lak" ma'nosini anglatadi, "turistik koridor" esa, mintaqa yoki hududlarning eng diqqatga sazovor, katta ahamiyatga molik bo'lgan turistik markazlari, shaharlarini bog'lovchi bosh yo'lak mohiyatini tushuntrib beradi. Ushbu atamaning kelib chiqishi transport koridori, iqtisodiy koridor, ekologik koridor, qolaversa, turistik marshrut atamasi bilan bog'liq degan fikrlar am mavjud. Dastavval ushbu tushuncha 1990-yillarda landshaft ekologiyasida qo'llanilgan (Forman, 1995). Bunda Yevropa, Shimoliy Amerika mintaqalarida daryo o'zani, daryo vodiysi, suvayirg'ich o'rmonlar, eni bir necha km (1-10 km), uzunligi 3 mingga km ni tashkil etuvchi o'rmon mintaqalari ekokoridor sifatida ajratilgan (Александрова, Сорокин, 2019). Ulardan turizm sohasida ham foydalanish jihatlari esa Krishen, Litinskiy va boshq. (2014), olimlar tomonidan o'rganilgan (Пономарёв, Байбаков, 2012). Keyinchalik dunyoning mashhur tarixiy-madaniy meroslarini bog'lovchi "madaniy meros koridori" tushunchasi paydo bo'lib, bu sohadagi muammolar ko'plab olimlarning tadqiqotlarida xalq an'analari, etnomadaniy muhit, hunarmandchilik, mamlakatlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda madaniy meros koridorini tashkil etish masalalari sifatida yoritib berilgan (Huang, Shen and other, 2023).

Irfan Hertanto, Endang Titi, Sunarti, Murni Rachmawati (2017) tadqiqotlarida Afrikaning shimol-janub koridorini bog'lash muammolari aniqlangan bo'lsa, Axmad Daxlan qismi bo'shlig'ini to'ldirish usullari tushuntirib berilgan.

Xalqaro turistik koridorlarni shakllantirishdagi qiyinchiliklardan eng asosiysi chegara hududlarida turizmdan foydalanish bo'lib, bunday masalalar dastavval Mattsettner ishlarida aks etgan. U 1970-yillardayoq bu holatning turizm rivojlanishiga to'siq ekanligini yozgan bo'lsada, biroq muammoni o'rganish 2000-yillardan keyingina ommalasha boshladi. U "Chegaralar va turizm" asarida turistik maskanlarning chegaraga nisbatan joylashuvini uch turini ko'rsatib bergan. Uning ishlarini Timoti davom ettiradi va "...chegaralar garchi, iqtisodiy ijtimoiy siyosiy jihatdan xalqlarni chegaralasada, ular madaniyat, meros, oila, din, millat haqida katta tarixni saqlab qoladi... Potensialga ega meros sifatida bu ham madaniy meros hisoblanadi" (Dallen, Timothy and other, 2022).

MDH davlatlarida mazkur mavzuga oid olib borilgan ishlar kam bo'lib, xususan, O'zbekistonda bunday turdagi tadqiqot ishlari bajarilmagan. Shu bois mavzuning qo'yilishidan maqsad - uning ilmiy apparati hamda jahon tajribalarini o'rganishdan iborat bo'lib, bunda olimlarning qarashlari tahlil qilingan, turistik koridorlarning turlari aniqlangan, jahon tajribalari o'rganilgan, turistik koridorlarni

tashkil etishning ijobiy va salbiy jihatlari aniqlangan. Tadqiqotda mintaqada “barqaror turizmni” tashkil etish jihatidan yondashilgan, hududiy tahlil, qiyosiy, statistik, kartografik usullardan foydalanilgan.

Hozirgi kunda esa, ko'proq tabiiy-madaniy landshaftlarning o'zaro uyg'unlashgan shakliga katta e'tibor berilmoqda. Sababi, aholining yashash muhiti, tabiiy sharoitidan kelib chiqib shakllangan, tabiiy landshaftning biror etnos-xalq tomonidan o'zlashtirilgan, ya'ni unga madaniy mazmun bag'ishlangan shaklidir. Xalqning asosiy atributlari-aholi yashash joyi, til, xo'jalik, madaniyati-shu tabiiy landshaft imkoniyatlari doirasida shakllanadi (Калуцков, 2008).

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turistik resursdan foydalanish o'sha hududga buyurtma berish demakdir, ya'ni har qanday turistik resurs asosida tashkil etiladigan maskan yoki tadbir muayyan hududda joylashgan bo'ladi. Bir necha turistik resurs mujassam bo'lgan hudud “turistik markaz” deyiladi. Ularni bir-biri bilan bog'lash asosida turistik koridorlar vujudga keladi. Bu maxsus yo'lak mahalliy va xorijiy fuqarolarning turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi, tovar va xizmatlarga qo'shimcha talab orqali iqtisodiyot rivojiga salmoqli hissa qo'shadi, chet el valyutasining kirib kelishi, saqlanishi va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Natijada, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalari ham mustahkamlanadi.

Turistik trassalar – avtomobil va temir yo'llar, velosiped va piyodalar yo'llari, ot yo'llari, turistlarning harakatlanishi uchun jihozlangan suv turistik marshrutlari turistik infratuzilma ob'ektlari kiradi.

Turistik marshrutlar – muayyan belgilangan hudud doirasida tashkil etilgan mintaqadir. Ular turizm tashkilotchilari tomonidan ishlab chiqiladi va turizm dasturlariga kiritiladi. Bitta turistik trassadan turli marshrutlar ham o'tishi mumkin (turli mavzudagi, turistlarning turli guruhlari).

Turistik koridor-yo'laklar turistik trassalar bo'ylab tashkil etilgan bo'lib, transport kommunikatsiyalari, turistik diqqatga sazovor joylar va turistik xizmatlar, turistik va rekreatsiya zonalarini o'z ichiga oladi. Bitta turistik koridor ichida bir necha parallel turistik trassalar bo'lishi mumkin.

Ularni geografik qamroviga ko'ra 4 turga ajratishimiz mumkin:

<b>Global</b>	eng yirik koridorlar bo'lib, qit'alarining turistik ob'ektlarini bir-biri bilan bog'laydi	Ular qit'alararo bo'lib, bunday turga, masalan, Yevropa va Afrika qit'asini bog'lovchi koridorlar, Osiyo va Yevropani bog'lovchi, (masalan, Buyuk Ipak yo'li), Yevropa va Shimoliy Amerika qit'asi o'rtasidagi turistik yo'laklar kiritiladi.
<b>Xalqaro</b>	bir qit'adagi davlatlarni o'zaro bog'laydi	bir qit'a yoki yirik geosiyosiy mintaqada doirasida amalga oshadigan turistik qatnovlarni o'z ichiga oladi.
<b>Milliy</b>	bir mamlakat doirasidagi turistik markazlarni bog'laydi	
<b>Mintaqaviy</b>	mamlakat ichidagi mintaqada doirasida bo'lishi mumkin	

O'zbekiston turizm magistrali “milliy” turiga kiradi va bunda bosh maqsad – respublikaning barcha viloyatlaridagi eng diqqatga sazovor turistik maskanlarini bog'laydi va turistga taqdim etadi (Tashtayeva, Qosimov, 2023). Global koridorlar “uchinchi dunyo” mamlakatlarining rivojlanishi bilan ko'payib, qatnovlar intensivligi ortib bormoqda.

Turistik koridorlarning xalqaro turida, odatda koridorlarning faoliyatiga mintaqalarda tuzilgan integratsiyalashgan tashkilotlar (ASEAN, NAFTA, YEI va b.) eng faol ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tur eng keng tarqalgan tur bo'lib, bu borada jahon davlatlarida katta tajribalar to'plangan. Masalan, Afrikada “Shimol-Janub” koridori Janubiy Afrika Respublikasi va Namibiya, Zambiya, Niger davlatlari o'rtasida tuzilgan bo'lib, bosh maqsad bioxilma-xillikni saqlab qolish, turizmga foydalanish, boshqarish va ekologik tarbiyani targ'ib qilishga qaratilgan.

Shu o'rinda turkiy davlatlar tomonidan Qirg'izistonda boshlanib, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston (kuzatuvchi sifatida qatnashadi), Ozarbayjon davlatlarini qamrab olib, Turkiyada tugaydigan, markaziy Osiyoning eng diqqatga sazovor turistik markazlarini bog'laydigan vizasiz rejim asosida ishlaydigan maxsus turistik koridor loyihasi ustida ish olib borilayotgani haqida ham aytib

o'tishimiz lozim. Ushbu dastur transchegaraviy maqsadli yo'nalishlarni rivojlantirishdagi mavjud bo'shliqni bartaraf etadi va strategik ishlarni moliyalashtirish uchun koridor yondashuvidan foydalanadi hamda pirovardida yanada barqaror turizm sanoatini yaratishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sayohatchilarning turli cheklov va nazoratlarni, tartib qoidalarni ixchamlashtirgan holda erkin harakat qilishlarini ta'minlaydi. Bu konsepsiya nafaqat turizm, balki mazkur davlatlarni iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan ham o'zaro yaqinlashtirish uchun ham imkon yaratadi.

Turistik koridorlar milliy miqyosda ham tashkil etilishi mumkin. Ayniqsa, katta maydonga ega yoki hudud konfiguratsiyasi cho'zilib ketgan davlatlarda barcha hududlarning turistik markazlarini bog'lash maqsadida tashkil etilgan ko'plab koridorlarni misol qilib keltirish mumkin: Rossiyadagi "Oltin shoh" mamlakat g'arbiy qismidagi 12 ta turistik shaharni bir-biri bilan bog'laydi.

Kanadada esa mamlakatning maydoni ulkan ekani hisobga olingan holda "Turistik koridorlar strategik dasturi" qabul qilingan. Unda ko'rsatilicha, turistik koridor – bu muayyan tarixiy-arxeologik, tabiiy landshaftlar, madaniy-etnologik turistik diqqatga sazovor joylarni bog'lovchi geografik marshrut yoki mintaqadir. Bu turistlarga bir vaqtning o'zida bir yo'la ko'plab va turli-tuman destinatsiyalarni qisqa vaqt oralig'ida taqdim etadi, uni turistlar orasida ommalashtiradi, noma'lum joylarni tanitadi, natijada mahalliy aholi ish bilan ta'minlanadi, mamlakat byudjetiga ma'lum miqdorda daromad tushadi, o'lka rivojlanadi, infratuzilma esa kelib tushgan soliqlar manbasi asosida sezilarli darajada yaxshilanadi. Bunda katta turistik-rekreatsion salohiyatga ega, ko'plab turistik resurslar mujassam bo'lgan uchta koridor alohida ahamiyatga ega: YUNESKOning Atlantika Kanadasi – uning tarkibida 13 ta YUNESKO tarkibiga kiruvchi ob'ektlar mavjud, biosfera, tabiiy landshaftlar, boy tarixga ixtisoslashgan. Ikkinchisi esa "Preriyalardan-Tinch okeanga qadar" va uchinchisi Janubiy Al'bertadan Britaniya Kolumbiyasigacha-shimoliy hududlarda yashovchi tub joy aholisi jamoalari, gastronomik turizm, shimol aholisi turmush tarzi va madaniyati bo'yicha tassurotlar olishga qaratilgan.

Respublikada milliy miqyosda Andijon viloyatining Xonobod shahridan Surxondaryo viloyatining Termiz shahriga bog'langan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq shahrigacha «O'zbekiston turizm magistrali» turizm transport koridori" tashkil etilishi rejalashtirilgan bo'lib, barcha viloyatlarning eng diqqatga sazovor turistik resurslarini bog'laydi va mavjud hududiy bo'shliqlarni to'ldiradi.

Hududlarni bog'lovchi mintaqaviy koridorlarga misol qilib, Farg'ona xalqasimon turistik koridori, Zarafshon mintaqasi "Samarqand-Navoiy-Buxoro uchburchagi" ni keltirish mumkin.

Turistik koridorlar turistlar oqimiga ko'ra ham o'z tasnifiga ega bo'lib, xalqaro koridorlarda millionlab turistlar qatnasa, milliy doirada yiliga bir necha minglab turistlar ishtirok etadi. Turistlarga muayyan vaqt oralig'ida taqdim etilayotgan turistik resurslar turistik "samaradorlik" ni belgilaydi.

Turistik ob'ektlar bilan "to'yinganligi"ga ko'ra, ko'rsatkich har 100 km dagi turistik ob'ektlar soni bilan o'lchanadi. Agar bu ko'rsatkich har 100 km. ga 50 dan ortiq bo'lsa, yuqori, 10-50 tani tashkil etsa, o'rta, 10 tadan kam bo'lsa, past daraja deb hisoblanadi. Buni esa koridorlarni tashkil etish, turistik infratuzilmani rivojlantirishda hisobga olish zarurdir (Тумащук, 2013).

### **Xulosa va takliflar.**

Turistik koridorlarni tashkil etish va rivojlantirish hozirgi zamon talabi bo'lib, mavjud turistik resurslardan to'liq va samaraliroq foydalanish turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish va tovar hamda xizmatlarga qo'shimcha talab hisobiga iqtisodiyot taraqqiyotini faollashtirish uchun shart-sharoit yaratadi. Bu holat xususan:

- turistlarga yengillik yaratadi;
- hududdagi barcha turistik resurslarni bog'laydi;
- hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi;
- qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi;
- chet el valyutasi kirib keladi;
- jamiyatda ijtimoiy muhit yaxshilanadi, aholi daromadi ortadi;
- mintaqada xalqaro integratsion munosabatlar rivojlanadi;
- turistik resurslarni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid standartlar ishlab chiqilishi asosida ekologik tarbiya, madaniyat shakllanadi;
- barcha turdagi infratuzilma rivojlanadi va b.

**Adabiyotlar / Lumeputamya / Literature:**

Dallen J. Timothy, Marek Wickowski (2022). *Borders, Heritage, and Memory from: Routledge Handbook of Borders and Tourism* Routledge Accessed.

Farmon (2019) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni*.13.08.2019. PF-5781.

Forman, R.T. (1995) *Some General Principles of Landscape and Regional Ecology*. *Landsc Ecol.* № 10, 133–142.

Irfan Hertanto, Endang Titi Sunarti D, Murni Rachmawati. (2017) *Corridor as A Transition at Tourism Area in Yogyakarta.*// *The 3rd International Seminar on Science and Technology. Postgraduate Program Institut Teknologi Sepuluh Nopember, Surabaya, Indonesia.* 42-46 c.

Qaror (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori*. 30.04.2022. PQ-232.

Tashtayeva S., Qosimov X. (2023). *"O'zbekiston turizm magistrali" turistik koridori rivojlanishining asosiy xususiyatlari (Farg'ona xalqasimon turistik koridori misolida).* // *"Raqamlashtirish sharoitida xorij mamlakatlarida turizmning rivojlanish muammolari va istiqbollari".* Халқаро анжуман материаллари. ТДШУ.

Yihe Huang, Shouyun Shen, Wenmin Hu, Yurou Li and Guo Li (2023) *Construction of cultural heritage tourism corridor for the dissemination of historical culture: a case study of typical mountainous multi-ethnic area in china.* *Land* 2023, 12(1), 138; <https://doi.org/10.3390/land12010138>

Александрова А., Сорокин Д. (2019) *Зарождение и развитие туристского каркаса Рязанской области.* *Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Естественные науки.* №2. С.115-128.

Калуцков В. (2008). *Ландшафт в культурно-географических исследованиях*// *Известия Российской академии наук. Серия географическая.* №4.-М.: "Наука". С 11-19.

Крышен А., Литинский П., Геникова Н., Костина Е., Преснухин Ю., Ткаченко Ю. (2014) [Выделении экологических коридоров в пределах зеленого пояса Фенноскандии](#) // *Труды Карелского научного центра Российской академии наук.* № 6.- 2014. - С. 157—162.

Қарор (2022) *Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Туркий давлатлар билан туризм соҳасидаги ҳамкорликни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Қарори*. 29.07.2022. ПҚ-338.

Пономарёв А., Байбаков Э., Рубцов В. (2012) *Экологический каркас: анализ понятий*// *Учёные записки Казанского университета. Серия: Естественные науки.* № 3. Т.154.-Казан. С. 228—238.

Тумащук Л. (2013). *Архитектурное и информационное обустройство туристских коридоров* // *Архитектура : сборник научных трудов.* Вып. 6. – С. 181 -187.